








«Avto Climate Control» MChJ	SIFAT MENEJMENTI TIZIMI XUJJATLARI
Xujjat kodi: PP – 03.04	ALOQA KANALLARI ORQALI QOIDABUZARLIKLAR TO'G'RSIDA “AVTO CLIMATE CONTROL” MChJga KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI

**ALOQA KANALLARI ORQALI QOIDABUZARLIKLAR TO'G'RSIDA  
“AVTO CLIMATE CONTROL” MChJ ga KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL  
QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI**

<b>Tasdiqlanishi</b>			
Lavozimi	Bo'lim	Imzo	F. I. Sh.
<b>Tasdiqlayman</b>			
Bosh direktor	Rahbariyat		B.B.Mamatxonov
<b>Kelishildi</b>			
Bosh direktor o'rinbosari	Rahbariyat		U.I.Kurbanov
<b>Aloqador bo'limlar bilan kelishilganligi</b>			
Yuriskonsult	“Avto Climate Control” MChJ		U.A.Umaraliyev
Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi	Kasaba uyushmasi qo'mitasi		A.T.Umirzaqov
Xizmat boshlig'i	Komplayens xizmati boshlig'i		T.B.Gafurov
Standartlashtirish bo'yicha mas'ul	Sifat nazorati va menejmenti bo'limi		S.M.Abduxalilova
<b>Ishlab chiqdi:</b>			
Bo'lim boshlig'i	Xodimlarni boshqarish bo'limi		Z.T.Madyarova

Amalga kiritilgan sana: 04.10.2023

Amal qilish muddati: 04.10.2028

Qayta ko'rib chiqish muddati: \_\_\_\_\_

<b>«Avto Climate Control» MChJ</b>	<b>SIFAT MENEJMENTI TIZIMI XUJJATLARI</b>
<b>Xujjat kodi: PP – 03.04</b>	<b>ALOQA KANALLARI ORQALI QOIDABUZARLIKLAN TO'G'RISIDA “AVTO CLIMATE CONTROL” MChJga KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQUISH REGLAMENTI</b>

**O'ZGARISHLARNI RO'YXATGA OLISH VAROG'I**

O'zgarish №	O'zgarishning qisqacha tavsifi, almashtirilgan varoqlar raqami	Tasdiqlandi	Amalga kiritildi	Imzo

«Avto Climate Control» MChJ	<b>SIFAT MENEJMENTI TIZIMI XUJJATLARI</b>
<b>Xujjat kodi: PP – 03.04</b>	<b>ALOQA KANALLARI ORQALI QOIDABUZARLIKLAR TO'G'RISIDA “AVTO CLIMATE CONTROL” MChJga KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI</b>

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Reglament “Avto Climate Control” MChJda (keyingi o‘rinlarda – “Jamiyat”) korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va tegishli ta’sir choralari ko‘rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish;

Xodimlarning Odob-axloq kodeksi, Jamiyatning poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi siyosat va tartib-taomillari, amaldagi qonunlar va normativ hujjatlarning buzilishi hamda Jamiyat, uning nazorati ostidagi korxonalar yoki xodimlarga daxldor noo‘rin xatti-harakatlar yoxud potensial qoidabuzarliklar haqida zudlik bilan xabar berish zarurligi xususida aniq bayonot berish;

mumkin bo‘lgan qoidabuzarliklar yoki noto‘g‘ri xatti-harakatlar to‘g‘risida, xavotir va muammolar yuzasidan xabar berishning tegishli usullari to‘g‘risidagi ma’lumotni taqdim etish;

Xodimlarga ta’qibdan qo‘rqmagan holda xavotir va muammolar yuzasidan xabar berish imkoniyatini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament:

Jamiyatdagi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish, shuningdek, Jamiyat rahbariga hisobot taqdim etish tartibini belgilash;

barcha xodimlar, Biznes hamkorlar yoki uchinchi shaxslarni ular noqonuniy, axloqsiz, qonundan tashqari yoki noo‘rin xatti-harakatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin degan gumon qilgan muammolar to‘g‘risida maxfiy murojaat qilishi va xabar berishida qo‘llab-quvvatlash;

bunday xabarlarni taqdim etish yoki ular bilan ishlashning aniq mezonlarini ishlab chiqish; ma’lumotlarning bunday fosh etilishi jiddiy va maxfiy tartibda ko‘rib chiqilishi, shu bois ariza beruvchi biron-bir javob choralaridan xavfsiramasligi mumkinligibo‘yicha ishonchni ta’minlash;

ochiqlik, insoflilik va halollik bilan bog‘liq komplayens madaniyatini yoyish va rivojlantirishda yordam berishga qaratilgan.

3. Reglament Jamiyatga, xodimlar, Biznes hamkorlar / kontragentlar hamda Jamiyat nazorati ostidagi korxonalarga nisbatan tatbiq etiladi.

4. Jamiyat aksiyalarning ulushiga ega bo‘lmagan korxonalarining xodimlari, mansabdor shaxslari va direktorlari ham ushbu Reglament yoki shunga o‘xshash standartlarga rioya qilishlari nazarda tutiladi.

5. Reglament xabar berishning boshqa mexanizmlarini, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat qilish tartibini to‘ldiradi, lekin ularni almashtirmaydi.

umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat;

6. Ushbu Reglament va boshqa amaldagi siyosat hamda protseduralar amal qilinishi lozim bo‘lgan minimal standartni belgilaydi. Agar mahalliy qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar yoki qonunosti hujjatlarida yuqori talablar belgilangan bo‘lsa, u holda Jamiyat yanada qat’iyroq talablarga rioya qiladi. Agar Nazorat ostidagi korxonalar ushbu Reglamentda ko‘rsatilganidan yengilroq talablarni qabul qilmoqchi bo‘lsa, u “UzautoComponents” MCHJning Komplayens va ishlab chiqarish-moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamentidan yozma rozilik olishi lozim bo‘ladi.

«Avto Climate Control» MChJ	<b>SIFAT MENEJMENTI TIZIMI XUJJATLARI</b>
Xujjat kodi: PP – 03.04	<b>ALOQA KANALLARI ORQALI QOIDABUZARLIKLAR TO'G'RSIDA “AVTO CLIMATE CONTROL” MChJga KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI</b>

7. Reglament mijozlarning Kodeks va komplayens bo'yicha boshqa siyosat hamda tartib-taomillarning potensial buzilishlariga bog'liq bo'lmagan umumiy shikoyatlariga (masalan, xizmat sifati, narxlar) va xodimlarning mehnat munosabatlariga oid shikoyatlariga (masalan, bonuslar, ish faoliyatini baholash, boshqaruv qarorlari va boshqalar) nisbatan qo'llanilmaydi.

8. Mazkur Reglament maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**ishonch telefoni** – Jamiyatga telefon orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;

**murojaatchi** – aloqa kanallari orqali Jamiyatdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs, xodim;

**manfaatlar to'qnashuvi** – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, Jamiyatlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

**korrupsiya** – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaviy xarakatlar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi** – amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Jamiyat xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Jamiyat nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

**taaluqli xabar** – Jamiyatdagi korrupsiyaviy harakatlar, qoidabuzarliklar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo'lgan xabar;

**xodim** – Jamiyat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs (Jamiyat boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilmalar boshliqlari (rahbarlari) va boshqa ishchilar);

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** – xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida o'zi yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo'lida xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlari).

**Jamiyat nazorati ostidagi korxon** – Jamiyat o'zining ovoz beruvchi aksiyalarining (ulushlarining) yigirma foizidan ko'prog'iga ega bo'lgan yoki ustav jamg'armasida ustun ishtirok etish sababli tobe va (yoki) sho'ba korxonasi, qo'shma korxonasi va boshqa tashkilot.

«Avto Climate Control» MChJ	<b>SIFAT MENEJMENTI TIZIMI XUJJATLARI</b>
Xujjat kodi: PP – 03.04	<b>ALOQA KANALLARI ORQALI QOIDABUZARLIKLAR TO'G' RISIDA “AVTO CLIMATE CONTROL” MChJga KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQUISH REGLAMENTI</b>

**Biznes hamkor / kontragent** – Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlariga (mehnat munosabatlaridan tashqari) kirishadigan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs (Biznes hamkorni kontragent, yetkazib beruvchi, distribyutor, diler yoki Jamiyat nomidan va uning manfaatlarini uchun harakat qilishga vakolatli boshqa uchinchi shaxsni misol keltirishi mumkin).

**uchinchi tomon** – Jamiyat yoki uning nazorati ostidagi korxonadan shartnoma tuzish to'g'risida taklif olgan yoki Jamiyat yoki Nazorat ostidagi korxonadan bilan biznes yoki boshqa aloqalar o'rnatishni taklif qilgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

9. Jamiyat korrupsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo'ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

**konfidentsiallik va xavfsizlik** – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan Jamiyatning barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo'lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish) ga haqqi yo'q. Agar murojaatchi o'z xabarini yuborganligi xaqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o'z xohishiga ko'ra, jumladan, ehtiyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo'lsa, Jamiyat uning oshkor bo'lishiga javobgar bo'lmaydi. Jamiyat noma'qul xulq-atvor yoki g'ayrionuniy xatti-harakatlar to'g'risidagi da'volarni sir saqlaydi va ularni amaldagi qonunlar va normativ hujjatlarga muvofiq ko'rib chiqadi. Muloqotning tanlangan usulidan qat'i nazar, agar maxfiylikni saqlash to'g'risida so'rov kelib tushgan bo'lsa, Jamiyat milliy qonunchilikka muvofiq ruxsat etilgan darajada maxfiylik to'g'risida qayg'uradi (g'amxo'rlik qiladi);

**qonuniylik** – Jamiyat aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, qayta ishlash va ko'rib chiqish qat'iy ravishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

**qoidabuzarlik** – amaldagi qonunlar va normativ hujjatlarning buzilishi hamda Jamiyat, uning nazorati ostidagi korxonalar yoki xodimlarga daxldor noo'rin xatti-harakatlar yoxud potensial qoidabuzarliklar yoxud jinoyat sodir etilganlik.

**murojaatchining ta'qib qilinmasligi** – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar haqida o'z xohishiga ko'ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, xususan Jamiyat xodimi xabarning mazmunidan qat'i nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi. Jamiyat xodimlari xavotirlarning sabablari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noto'g'ri xatti-harakatlar to'g'risida xabar berish tufayli noqulaylik vaziyatda qolmasligi lozim. Jamiyat xavotir sababi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noto'g'ri xatti-harakatlar to'g'risida vijdonan xabar bergan har qanday shaxsga nisbatan javob harakatlari, ta'qib qilish va keyingi kamsitishlarga toqat qilmaydi. Vijdonan “ishonch kanallari” dan foydalanganlarga nisbatan biron-bir dushmanlarcha xatti-harakatlarin amalga oshiradigan, ularni ta'qib qiladigan yoki ta'qib qilishga urinadigan Xodimlar mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan intizomiy javobgarlikka tortiladilar;

**murojaatchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa** – agar xabar anonim bo'lmasa, uni ko'rib chiqish natijalari Jamiyat tomonidan murojaatchiga yetkazilishi lozim;

**ta'sir choralari qo'llashning majburiyigi** – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, Jamiyat aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi;

**murojaatlarga jiddiy e'tibor qaratish** – Jamiyat mumkin bo'lgan Reglament buzilishlari yoki noma'qul xatti-harakatlar to'g'risidagi barcha xabarlarni jiddiy qabul qiladi va barcha ishonchli ayblovlarni o'rganish va tekshirish majburiyatini oladi. Xabarni ushbu Reglamentda ko'zda tutilgan tartibda olgan barcha shaxslar undagi ma'lumotlarni maxfiy deb hisoblashlari va muammo haqida ma'lum qilgan shaxsga hurmat bilan qarashlari shart;

«Avto Climate Control» MChJ	<b>SIFAT MENEJMENTI TIZIMI XUJJATLARI</b>
Xujjat kodi: PP – 03.04	<b>ALOQA KANALLARI ORQALI QOIDABUZARLIKLAR TO'G'RISIDA “AVTO CLIMATE CONTROL” MChJga KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI</b>

**xabarlarning halol niyatlarda yetkazilishi** – shaffoflik va oshkoralikni ta'minlash va “ishonch kanallari”ni rag'batlantirish juda muhimdir. O'z navbatida, ma'lumotlar halol va vijdonan hamda xabardorlik asosida yetkazilishi kerak. Qasddan soxta xabar yuborish, muammo yoki xavotir haqida g'arazli niyatlar bilan xabar berish Kodeksga zid bo'lib, ushbu Reglament buzilgan hisoblanadi.

### **2-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar yoki qoidabuzarliklar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari**

10. Xavotirlarning sabablari to'g'risidagi xabarlar va Ushbu Reglamentga muvofiq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklar yoki noma'qul xatti-harakatlar to'g'risidagi da'volarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar xabar beruvchi shaxsning tanloviga binoan buning uchun bir necha taklif qilingan kanallar orqali berilishi mumkin. Quyida aytib o'tilganidek, ushbu kanallarning ba'zilarini maxfiylikni ta'minlaydi.

11. Taaluqli xabar quyidagi aloqa kanallaridan yuborilishi mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (<https://pm.gov.uz/>) orqali;

To'g'ridan-to'g'ri xabar berish: Xodimlar to'g'ridan-to'g'ri o'zlarining rahbariga, Komplayens xizmatining joylardagi vakillariga, Yuridik yoki Xodimlar bilan ishlash bo'limlariga xabar yuborishlari mumkin.

Onlayn: Jamiyatning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochta orqali;

Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol uchun Facebookdagi rasmiy sahifasi (<https://www.facebook.com/>\_\_\_\_\_)) orqali;

Jamiyatning telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

“UzautoComponents” MCHJning telegram boti ([@USF\\_compliance\\_bot](https://t.me/USF_compliance_bot))

Jamiyatga og'zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni mahofaza qiluvchi organlar orqali;

mazkur Reglamentda ko'rsatilmagan boshqa aloqa kanallari.

12. Jamiyat aloqa kanallari to'g'risidagi axborotni rasmiy veb-sayt, va ijtimoiy tarmoqdagi sahifa va kanallariga joylashtiradi, shuningdek, xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron xatlar tarqatmalariga va o'quv materiallariga kiritadi, Jamiyat binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va hokazolarda aks ettiradi.

### **3-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan taaluqli xabarlarni qabul qilish**

13. Jamiyatning Komplayens xizmati Jamiyatning aloqa kanallaridan kelib tushgan taaluqli xabarlarni ko'rib chiqishga mas'ul hisoblanadi.

14. Xabarni yuborishda quyidagilarni ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

- xabarda ko'rsatilgan qoidabuzarlikka aralashgan shaxsning ismi, lavozimi va/ yoki ishlaydigan bo'limi;

- ko'rib chiqilayotgan qoidabuzarlik sodir bo'lgan sana (agar ma'lum bo'lsa, oy, yil va sanasi);

- ilgari ham Jamiyatda yoki uning nazorati ostidagi korxonada biron-bir kishi ushbu masala yuzasidan xavotirlik bildirganmi, agar shunday bo'lsa, keyin qanday choralar ko'rilgan;

- axborot manbai ma'lumotlarning sir saqlanishini xohlaydimi;

- Jamiyat murojaatchilarga murojaat natijalarini belgilangan tartibda yetkazish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun murojaatchilarning aloqa ma'lumotlari.

«Avto Climate Control» MChJ	<b>SIFAT MENEJMENTI TIZIMI XUJJATLARI</b>
Xujjat kodi: PP – 03.04	<b>ALOQA KANALLARI ORQALI QOIDABUZARLIKLAR TO'G'RISIDA “AVTO CLIMATE CONTROL” MChJga KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI</b>

15. Jamiyatning quyidagi aloqa kanallaridan kelib tushgan taaluqli xabarlar Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi Jamiyatlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizom va Jamiyatning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom talablarida nazarda tutilgan tartibda ro'yxatga olinadi va rezolyutsiya uchun Jamiyat rahbariga chiqariladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;

Jamiyatning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochta orqali;

Jamiyatning telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

Jamiyatga og'zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali.

16. Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari va telegram boti orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Komplayens xizmati mas'ul xodimi tayinlanadi.

Bunda, taaluqli xabar kelib tushganda Komplayens xizmati mas'ul xodimi murojaatchi bilan elektron yozishma yo'li bilan yoki telefon orqali bog'lanib zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni Reestrda ro'yxatga oladi va ma'lumotni Jamiyat raxbariga kiritadi.

Komplayens xizmati mas'ul xodimi kelib tushadigan xabarlarni dushanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 ga qadar tahlil qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

17. Agar murojaatchi o'z xabarini tasdiqlash uchun qo'shimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyozuvlarga ega bo'lsa, murojaatni qabul qilishga mas'ul xodim ularni taqdim etish bo'yicha foydalaniladigan aloqa kanallarini (telegram boti yoki elektron pochta)ni ko'rsatadi va taqdim etiladigan ma'lumotni konfidentsialligini bildiradi, Qonun hujjatlarida oshkor etilishi shartligi yoki foydalanishni cheklashga yo'l qo'yilmasligi ma'lumotlar va materiallar bundan mustasno. Mazkur ma'lumotlar taaluqli xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

18. Jamiyat rahbari taaluqli xabarni tyezkorlik bilan tahlil qilish va ko'rib chiqish uchun Jamiyatning Komplayens xizmatiga topshiriq tushiradi.

19. Jamiyatning Komplayens xizmati taaluqli xabarni olgandan keyin 1 (bir) soat ichida uni ilovaga muvofiq shaklda Jamiyatda korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reestrda (keyingi o'rinlarda – Reestr) ro'yxatga olishi va ushbu Reglamentning 4-bobiga muvofiq ko'rib chiqishi lozim.

20. Jamiyat murojaatchilarga xodim tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xarakterli harakatlarga to'g'risida anonim xabarlar qoldirish imkoniyatini beradi.

Anonim xabar kelib tushgan taqdirda Jamiyatning ma'sul xodimi, imkon mavjud bo'lgan taqdirda, quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

Jamiyatga kelib tushgan xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bog'lanish imkoniyatini ta'minlash;

qo'shimcha zarur ma'lumot olish imkoniyati bo'lmagan taqdirda xabarni to'liq va har tomonlama o'rgana olmasliklarini bildirishi;

murojaatchiga u bilan bog'lanish uchun anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi (shaxs ko'rsatilmagan elektron pochta manzili, Telegramdagi maxfiy chat va b.);

Murojaatchi o'z arizasidan voz kechmagan taqdirda, mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi shart.

«Avto Climate Control» MChJ	<b>SIFAT MENEJMENTI TIZIMI XUJJATLARI</b>
Xujjat kodi: PP – 03.04	<b>ALOQA KANALLARI ORQALI QOIDABUZARLIKLAR TO'G' RISIDA “AVTO CLIMATE CONTROL” MChJga KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI</b>

Jinoyat sodir etilganlik to'g'risida xabar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq anonim tarzda berilishi man etiladi.

21. Jamiyat xodimlari tomonidan olingan xabarlarni ko'rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquq buzarlilarni sodir etishning sabab va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

22. Olingan xabarlar bo'yicha barcha taaluqli materiallar, hujjatlar va ma'lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) Ma'muriyat va hujjatlar ijrosi nazorati boshqarmasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatga, shu bilan birga 10 yildan kam bo'lmagan muddatga saqlanishi kerak.

23. Taaluqli xabar Jamiyatning tizim korxonalariga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan mas'ul xodimlar zudlik bilan yozma shaklda mazkur korxonaga rahbari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ulni (mavjud bo'lsa) kelib tushgan xabar to'g'risida xabardor qiladi, ular o'z navbatida ushbu xabarni Jamiyatning Komplayens xizmatiga yuboradi. Komplayens xizmati olingan xabarni mazkur Reglamentning 4-bobida bayon etilgan tartibga muvofiq ko'rib chiqadi.

24. Jamiyatning tizim korxonalari o'z Reestrlarini yuritadi.

#### **4-bob. Korrupsiyaviy harakatlar haqidagi xabarlarni ko'rib chiqish**

25. Komplayens xizmatiga kelib tushgan barcha taaluqli xabarlar ushbu departamentning mas'ul xodimlari yoki Jamiyat rahbari topshirig'iga asosan boshqa bo'linmalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

26. Korrupsiyaviy xarakatlari to'g'risidagi xabarlarni ko'rib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taaluqli xabar kelib tushgan yoki ko'rib chiqish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodimlarni jalb qilish man etiladi.

27. Taaluqli xabar kelib tushganda Komplayens xizmati xodimi dastlabki tekshirish o'tkazib, uning taaluqliligini tahlil qiladi, ya'ni xabarda ko'rsatilgan ma'lumotning Jamiyat tizimiga taaluqli korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka va (yoki) manfaatlar to'qnashuviga tegishliligini tekshiradi.

Dastlabki tekshirish taaluqli xabar Komplayens xizmatiga kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Jinoyat sodir etilgani to'g'risidagi ma'lumotlar darhol ko'rib chiqiladi va bu haqida rahbariyat va tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlari xabardor qilinadi.

28. Mazkur Reglamentning 27-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshirish natijalaridan qat'i nazar, bu haqdagi axborot Reestruga kiritiladi.

29. Agar Komplayens xizmati xodimi xabar taaluqli emas degan xulosaga kelsa, bu xabar bir ish kuni ichida Jamiyatning tegishli tuzilmasiga bildirgi asosida o'tkazilishi lozim.

30. Agar xabarda korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumot hamda xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, Komplayens xizmati xodimi ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

31. Taaluqli xabarlarni mazmunan ko'rib chiqish Jamiyatga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oy ichida, tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari, Jamiyatning rahbari



«Avto Climate Control» MChJ	<b>SIFAT MENEJMENTI TIZIMI XUJJATLARI</b>
Xujjat kodi: PP – 03.04	<b>ALOQA KANALLARI ORQALI QOIDABUZARLIKLAR TO'G'RISIDA “AVTO CLIMATE CONTROL” MChJga KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI</b>

tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

32. Murojaatga javob Komplayens xizmati tomonidan tayyorlanib, Jamiyat rahbari imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

33. Taaluqli xabarlarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra o'rganish natijalari va qo'llanilgan ta'sir choralari ko'rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi.

34. Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar va telegram-bot orqali kelib tushgan taaluqli xabarga javob murojaatchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoki telegram-bot orqali yuboriladi.

### **5-bob. Hisobdorlik**

35. Reestr dan Komplayens xizmati xodimlari, xabarlarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan tegishli boshqa davlat organlari va Jamiyatlarining xodimlari (faqat shunday xabarlarga doir), Jamiyat rahbari yoki rahbarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishini nazorat qiluvchi o'rinbosari foydalanishi mumkin.

36. Reestr ma'lumotlari asosida Komplayens xizmati har chorakda Jamiyat rahbariga qabul qilingan korrupsiyaviy xarakterli to'g'risidagi xabarlarga taaluqli bo'lgan hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- kelib tushgan taaluqli xabarlar va ko'rib chiqilgan taaluqli xabarlar soni;
- qoidabuzarliklar, korrupsiyaviy xarakterli, manfaatlar to'qnashuvi holatlari tasdiqlangan taaluqli xabarlar soni;
- ko'rib chiqish muddatlari buzilgan taaluqli xabarlar soni;
- taaluqli xabarlarni ko'rib chiqishning o'rtacha muddati;
- murojaatchilar tomonidan eng ko'p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma'lumotlar.

### **6-bob. Yakuniy qoida**

37. Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

38. Mazkur Reglament, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

«Avto Climate Control» MChJ	SIFAT MENEJMENTI TIZIMI XUJJATLARI
Xujjat kodi: PP – 03.04	ALOQA KANALLARI ORQALI QOIDABUZARLIKLAR TO'G'RSIDA “AVTO CLIMATE CONTROL” MChJga KELIB TUSHGAN XABARLARINI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI

“Avto Climate Control” MChJning aloqa kanallari orgali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqish reglamentiga ilova

**Jamiyatda korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarini qabul qilish  
REESTRI**

T/r	Xabar kelib tushgan sana	Hudud	Xabarning toifasi (korrupsiyaviy xatti-harakat, manfaatlar to'qnashuvi)	Murojaatlar bilan ishlash tizimida ro'yxatga olingan sana va raqami	Xabar yuborilgan aloqa kanali	Murojaatchi ma'lumotlari (jismoniy yoki yuridik shaxs, qayta aloqa ma'lumotlari)	Xabarning qisqacha mazmuni	Xabar taaluqli bo'lgan tuzilma	Ko'rib chiqish natijalari qanoatlantirildi/ tushuntirish berildi/ ko'rmasdan qoldirildi	Murojaatchiga javob yuborilgan sana va xat raqami	Ijrochi	Xabarni ko'rib chiqqan tuzilma rahbari	Izoh
1.													
2.													
...													